



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **35,2** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,5** mingtaga kamaygan yoki **6,6** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 10,9 birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-sentabrida **5,6** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,5** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024-yillar 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni (birlikda) va ulushi, foizda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2024-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023-yil		2024-yil
10 506	Samarqand sh.	10 208
1 285	Kattaqo'rg'on sh.	1 212
1 697	Oqdaryo	1 454
1 638	Bulung'ur	1 535
1 608	Jomboy	1 417
1 918	Ishtixon	1 660
1 975	Kattaqo'rg'on t.	1 725
916	Qo'shrabot	937
1 303	Narpay	1 203
1 870	Payariq	1 715
2 853	Pastdarg'om	2 534
1 103	Paxtachi	997
3 082	Samarqand t.	3 125
1 235	Nurobod	1 119
2 959	Urgut	2 705
1 732	Toyloq	1 657

2024-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **35 203** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **5 582** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida **10 208** tani yoki jamiga nisbatan **29,0 %** ni, Samarqand tumanida **3 125** tani yoki jamiga nisbatan **8,9 %** ni, Urgut tumanida **2 705** tani yoki jamiga nisbatan **7,7 %** ni Pastdarg'om tumanida **2 534** tani yoki jamiga nisbatan **7,2 %** ni tashkil etdi.

2024-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Samarqand sh.	17,3
Kattaqo'rg'on sh.	12,7
Oqdaryo	11,1
Bulung'ur	12,8
Jomboy	10,9
Ishtixon	9,2
Kattaqo'rg'on t.	9,2
Qo'shrabot	10,7
Narpay	7,2
Payariq	10,9
Pastdarg'om	7,9
Paxtachi	9,4
Samarqand t.	13,5
Nurobod	11,3
Urgut	7,5
Toyloq	10,2

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2024-yil 1-oktabr holatiga, birlikda



2024-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **10,9** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **0,9** birlikka pasaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **17,3** birlik, Samarqand tumanida **13,5** birlik, Bulung'ur tumanida **12,8** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **12,7** birlik va Nurobod tumanida **11,3** birlikka yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Samarqand shahar
17,3 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Qo'shrabot tumani
10,7 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Narpay tumani
7,2 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 17,3 birlik, Samarqand tumanida 13,5 birlik, Bulung'ur tumanida 12,8 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 12,7 birlik, Oqdaryo tumanida 11,1 birlik, Jomboy tumanida 10,9 birlik, Nurobod tumanida 11,3 birlik, Payariq tumanida 10,9 birlik, Qo'shrabot tumanida 10,7 birlik, Toyloq tumanida 10,2 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1-oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Samarqand shahar

17,3

Bulung'ur tumani

12,8

Nurobod tumani

11,3

Samarqand tumani

13,5

Kattaqo'rg'on shahar

12,7

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023-yil

2024-yil

1 421	Samarqand sh.	1 373
205	Kattaqo'rg'on sh.	171
320	Oqdaryo	208
397	Bulung'ur	315
263	Jomboy	180
313	Ishtixon	207
328	Kattaqo'rg'on t.	342
172	Qo'shrabot	163
207	Narpay	184
311	Payariq	202
560	Pastdarg'om	433
214	Paxtachi	184
509	Samarqand t.	826
244	Nurobod	220
448	Urgut	306
324	Toyloq	268

2024-yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda




2024-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri **24,6** %, Samarqand tumani **14,8** %, Pastdarg'om tumani **7,8** %, Kattaqo'rg'on tumani **6,1** %, Bulung'ur tumani **5,6** %, Urgut tumani **5,5** %, Toyloq tumani **4,8** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024-yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 2 013 ta, sanoatda 881 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 601 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 671 ta tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Samarqand shahrida 1 373 ta, Samarqand tumanida 826 ta, Pastdarg'om tumanida 433 ta hamda Kattaqo'rg'on tumanida 342 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-sentabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **34 790** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **14 968** (yoki **43,0 %**) ta, xizmatlar sohasida **8 590** (yoki **24,7 %**) ta, sanoat sohasida **6 025** (yoki **17,3 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **3 811** (yoki **11,0 %**) ta va qurilish sohasida **1 396** (yoki **4,0 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, foizda




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar




Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023-y. ■ 2024-y.




■ 2023-y. ■ 2024-y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), foizda

2024-yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **73,5 %** ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **0,7** punktga ko'paygan. Ko'payishining asosiy sababi, kichik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, foizda




2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,1 %** ni, yo'lovchi tashishda **93,7 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **95,3 %** ni, yuk aylanmasida **85,2 %** ni, qurilishda **85,6 %**, chakana savdoda **86,3 %** ni, tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm

Samarqand sh.	3 003,5
Urgut	2 348,3
Samarqand t.	1 436,4
Jomboy	1 297,6
Toyloq	1 068,2
Bulung'ur	763,8
Kattaqo'rg'on sh.	743,1
Oqdaryo	672,0
Payariq	644,2
Pastdarg'om	599,4
Narpay	406,4
Nurobod	402,9
Kattaqo'rg'on t.	351,8
Ishtixon	239,6
Paxtachi	120,2
Qo'shrabot	119,8

2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **16 253,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (**3 003,5** mlrd so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**743,1** mlrd so'm), Urgut (**2 348,3** mlrd so'm), Jomboy (**1 297,6,0** mlrd so'm), Samarqand (**1 436,4** mlrd so'm), Toyloq (**1 068,2** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qo'shrabot tumani (**119,8** mlrd so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2019-2024-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln so‘m

2024-yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 50,6 % ni tashkil etdi.




2024-yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo (100,0 %), Bulung‘ur (99,8 %), Payariq (98,2 %), Nurobod (92,8 %) va Qo‘shrabot (93,1 %) tumanlari Kattaqo‘rg‘on shahri (98,8 %), Urgut tumani (84,1 %), Samarqand tumani (66,1 %), Pastdarg‘om tumani (60,6 %), Narpay tumani (56,5 %), Toyloq tumani (45,8 %), Jomboy tumani (45,2 %), Ishtixon tumani (36,8%) va Paxtachi tumani (15,8 %) ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Kattaqo'rg'on sh.	197,0	100,0
Kattaqo'rg'on t.	520,3	96,1
Ishtixon	189,5	96,3
Jomboy	253,5	94,8
Narpay	105,0	97,3
Samarqand sh.	2 793,1	94,8
Paxtachi	112,3	92,8
Payariq	953,3	94,6
Bulung'ur	159,8	91,5
Urgut	193,2	90,9
Oqdaryo	363,8	88,0
Nurobod	79,4	82,5
Samarqand t.	190,9	81,8
Qo'shrabot	116,0	61,2
Pastdarg'om	302,4	47,4
Toyloq	500,6	58,4


2024-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **8 280,9** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **85,6** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **113,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (**2 793,1** mlrd so'm), Payariq (**953,3** mlrd so'm), Kattaqo'rg'on (**520,3** mlrd so'm), Oqdaryo (**363,8** mlrd so'm), Pastdarg'om (**302,4** mlrd so'm), Jomboy (**253,5** mlrd so'm), Samarqand (**190,7** mlrd so'm), Urgut (**193,2** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

hajmi, mlrd so'mda
ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln so'mda



2024-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **11 416,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **54,0 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **89,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**1 282,7** mlrd so'm), Nurobod (**1 713,8** mlrd so'm), Kattaqo'rg'on (**969,9** mlrd so'm), Jomboy (**1 376,2** mlrd so'm), Samarqand (**1 489,1** mlrd so'm), Urgut (**830,8** mlrd so'm), Narpay (**462,5** mlrd so'm) va Paxtachi (**406,2** mlrd so'm), tumanlarida qayd etildi.

2019-2024-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi

Jomboy	1 367,2	91,8
Samarqand t.	1 489,1	92,2
Oqdaryo	422,8	92,0
Nurobod	1 713,8	89,9
Kattaqo'rg'on t.	969,9	84,3
Bulung'ur	426,4	82,4
Narpay	462,5	88,3
Urgut	830,8	88,6
Ishtixon	313,6	71,7
Paxtachi	406,2	65,4
Toyloq	479,3	76,9
Kattaqo'rg'on sh.	252,9	46,2
Pastdarg'om	489,4	37,8
Qo'shrabot	257,7	36,6
Payariq	252,5	24,8
Samarqand sh.	1 282,7	17,6


hajmi, mlrd so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **39 850,2** mlrd so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,3** % ini tashkil etdi. o'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **109,4** % ni tashkil qildi.

2019-2024-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p yetishirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Toyloq (**2 514,5** mlrd so'm), Samarqand (**1 756,1** mlrd so'm), Jomboy (**2 011,0** mlrd so'm), Pastdarg'om (**3 331,3** mlrd so'm), Payariq (**3 875,7** mlrd so'm), Bulung'ur (**4 011,8** mlrd so'm), Ishtixon (**4 306,1** mlrd so'm), tumanlarida qayd etildi.


2024-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Toyloq	2 514,5	78,1
Samarqand t.	1 756,1	79,8
Jomboy	2 011,0	83,9
Samarqand sh.	171,8	71,4
Oqdaryo	2 211,3	95,5
Ishtixon	4 306,1	99,1
Bulung'ur	4 011,8	99,2
Kattaqo'rg'on t.	3 938,5	99,3
Payariq	3 875,7	99,3
Nurobod	1 204,4	98,8
Narpay	1 626,2	99,6
Pastdarg'om	3 331,3	98,7
Paxtachi	1 597,2	98,0
Qo'shrabot	1 875,6	99,8
Urgut	5 236,6	99,7
Kattaqo'rg'on sh.	182,1	99,9

hajmi, mlrd so'mda

ulushi, % da

2019-2024-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **20 086,7** mlrd so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **86,3 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **108,5 %** ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Kattaqo'rg'on sh.	850,9	99,8
Narpay	1 110,5	99,5
Ishtixon	860,3	99,3
Jomboy	801,3	99,3
Oqdaryo	528,0	99,1
Payariq	675,1	99,0
Qo'shrabot	452,5	99,1
Paxtachi	403,3	98,9
Nurobod	341,0	98,8
Bulung'ur	1 383,4	98,0
Urgut	2 170,6	98,0
Toyloq	647,3	97,6
Pastdarg'om	725,0	95,2
Kattaqo'rg'on t.	815,1	94,2
Samarqand sh.	5 917,9	75,6
Samarqand t.	1 775,3	69,1

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (5 917,9 mlrd so'm), Urgut (2 170,6 mlrd so'm), Samarqand (1 775,3 mlrd so'm), Bulung'ur (1 383,4 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on shahri (850,9 mlrd so'm), Narpay (1 110,5 mlrd so'm) Kattaqo'rg'on (815,1 mlrd so'm) va Pastdarg'om (725,0 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019-2024-yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln so'm




hajmi, mlrd so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-sentabrda oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd so'mda


Samarqand sh.	5 517,5
Samarqand t.	1 254,6
Pastdarg'om	1 160,4
Urgut	1 105,3
Jomboy	844,8
Toyloq	753,3
Kattaqo'rg'on t.	727,3
Ishtixon	692,1
Payariq	690,5
Oqdaryo	685,9
Narpay	643,6
Bulung'ur	501,1
Kattaqo'rg'on sh.	453,3
Qo'shrabot	391,5
Paxtachi	372,7
Nurobod	366,7

2024-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **25 938,8** mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,2 %** ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **113,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (**5 517,5** mlrd so'm), Samarqand (**1 254,6** mlrd so'm), Pastdarg'om (**1 160,4** mlrd so'm), Urgut (**1 105,3** mlrd so'm), Jomboy (**844,8** mlrd so'm), Toyloq (**753,3** mlrd so'm) va Kattaqo'rg'on (**727,3** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida **35,4 %** (**3 643,4** mlrd so'm), transport xizmatlarida **31,1 %** (**3 202,8** mlrd so'm), shaxsiy xizmatlarda **7,0 %** (**720,7** mlrd so'm) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **5,6 %** (**573,6** mlrd so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,6 %** (**58,5** mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-senabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh doll.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln AQSh doll.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Payariq	7,3	100,0
Qo‘shrabot	1,9	100,0
Bulung‘ur	10,1	100,0
Oqdaryo	19,0	100,0
Kattaqo‘rg‘on sh.	27,4	99,9
Kattaqo‘rg‘on t.	6,3	91,1
Nurobod	0,7	74,8
Urgut	35,5	82,1
Samarqand t.	41,3	47,6
Narpay	5,6	49,3
Ishtixon	6,0	50,7
Pastdarg‘om	5,1	64,9
Jomboy	19,3	27,0
Toyloq	3,2	22,0
Samarqand sh.	25,0	9,9
Paxtachi	0,6	5,6

hajmi, mln AQSh dollar


ulushi, % da

2024-yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **228,6** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **38,2** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Payariq, Qo‘shrabot, Bulung‘ur, Oqdaryo, tumanlari **100,0** %, Kattaqo‘rg‘on shahrida **99,9** %, Kattaqo‘rg‘on tumanida **91,1** %, Nurobod tumanida **74,8** %, Urgut tumanida **82,1** %, Samarqand tumanida **47,6** %, Narpay tumanida **49,3** % va Ishtixon tumanida **50,7** % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Paxtachi tumanida **5,6** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-senatbrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-senatbrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **574,0** million AQSh dollarini yoki jami importning **36,1** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-senatbrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, foizda

2024-yilning yanvar-senatbrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri va Qo'shrabot tumanida **100,0** %, Bulung'ur tumanida **99,9** %, Payariq tumanida **99,8** %, Paxtachi tumanida **99,2** %, Ishtixon tumanida **97,6** %, Oqdaryo tumanida **94,3** %, Urgut tumanida **91,5** %, Narpay tumanida **89,8** %, Samarqand tumanida **67,7** %, hamda Kattaqo'rg'on tumanida **67,1** % ni tashkil etdi.

Kattaqo'rg'on sh.	100,0
Qo'shrabot	100,0
Bo'lung'ur	99,9
Payariq	99,8
Paxtachi	99,2
Ishtixon	97,6
Oqdaryo	94,3
Urgut	91,5
Narpay	89,8
Samarqand t.	67,7
Kattaqo'rg'on t.	67,1
Pastdarg'om	60,2
Toyloq	44,1
Nurobod	53,4
Jomboy	38,6
Samarqand sh.	18,4

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati

88,0 %

Yuk
tashishda

85,2 %

Yuk
aylanmasida

93,7 %

Yo'lovchi
tashishda

97,1 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024-yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,0 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,0 %** ni tashkil qildi.


2024-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **85,2 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,8 %** ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,7 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,3 %** ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,1 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024-yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 806** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **808 (44,7 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **865 (47,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **133 (7,4 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda **49,4 % (892 ta)**, xizmatlar sohasida **27,8 % (502 ta)**, sanoatda **13,5 % (244 ta)**, qurilishda **5,6 % (101 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **3,7 % (67 ta)**ni tashkil etdi.

2024-yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

576	Samarqand sh.	31,9
64	Kattaqo'rg'on sh.	3,5
63	Oqdaryo	3,5
74	Bulung'ur	4,1
77	Jomboy	4,3
75	Ishtixon	4,2
71	Kattaqo'rg'on t.	3,9
44	Qo'shrabot	2,4
75	Narpay	4,2
78	Payariq	4,3
127	Pastdarg'om	7,0
56	Paxtachi	3,1
176	Samarqand t.	9,7
58	Nurobod	3,2
112	Urgut	6,2
80	Toyloq	4,4


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (576 ta), Samarqand (176 ta), Urgut (112 ta), Pastdarg'om (127 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning III choragida **501** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning III choragiga kelib esa **808** taga yetgan yoki 2019-yilning III choragiga nisbatan **307** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda **641** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-sentabrida **865** ta yoki **224** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **79** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **133** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **54** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning III choragida **509** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning III choragiga kelib esa **810** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **301** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning III choragida **622** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning III choragida **708** ta yoki **86** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019-yilning III choragida **75** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **133** tani tashkil etib, 58 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning III choragida **43,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **44,7** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **1,3** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **52,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning III choragida **47,9** % yoki **4,5** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **6,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich **7,4** % ga yetgan yoki **1,1** % ga ko'paygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning III choragida **71,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **49,1** % ga yetgan yoki 2019-yilning III choragiga nisbatan **22,1** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilning III choragida **33,8** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-sentabrida **42,9** % yoki **9,1** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilning III choragida **0,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **8,1** % yoki **7,2** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda **47,9 %** ni, xizmatda sohasida **44,4 %** ni, sanoatda **38,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish **55,8 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **55,2 %** ni, sanoatda **52,9 %** ni, xizmatlar sohasida **47,0 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda **11,5 %**, sanoatda **8,2 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **9,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 57,2 % ni, qurilishda 56,4 % ni, xizmatlar sohasida 55,6 % ni va sanoatda 53,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 44,8 % ni, sanotda 43,4 % ni va savdoda 39,9 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 7,5 % ni, qurilishda 5,9 % ni hamda xizmatlar sohasida 5,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, foizda


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	49,1	42,9	8,1
Band bo'lganlar soni	31,5	62,9	5,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,5	56,5	5,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	31,5	63,4	5,0
Raqobat muhiti	44,7	50,7	2,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	52,5	43,5	4,0
Band bo'lganlar soni	34,2	62,3	3,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,9	57,3	3,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	33,6	62,4	4,0
Raqobat muhiti	44,9	52,5	2,6


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, foizda



2024-yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, foizda



* Faqat raqobat muhitiga tegishli